

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

6-2023

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

<b>Ш.М.Султонова, Н.Б.Усмонова</b>	
Особенности формирования колористической медицинской терминологии (на примере русских, латинских, греческих и немецких названий болезней) .....	453
<b>Sh.M.Sultonova, M.B.Otaboyeva</b>	
Bilingv bolalar nutqidagi agrammatizmlarning psixolingvistik asoslari .....	458
<b>G.X.Nurmatova</b>	
korpus lingvistikasi doirasidagi diskurs tadqiqotlarning ilmiy-nazariy muammolari.....	463
<b>Z.Sh.Pazilova</b>	
O'zbek va Nemis xalqlarida to'ydan avval, to'y kuni va to'ydan keyin o'tkaziladigan urf-odatlar .....	469
<b>Y.Sh.Shuxratova</b>	
O'xshatish munosabatini ifodalovchi sintaktik vositalar .....	472
<b>M.E.Umarxo'jayev, N.F.Tursunova</b>	
National-cultural semantics of phraseology: an exploration into the heart of idioms and expressions .....	475
<b>N.R.Umarova, D.M.Xayitova</b>	
Tilshunoslikda koloronimlar va ularning kognitiv talqini .....	478

**O‘ZBEK VA NEMIS XALQLARIDA TO‘YDAN AVVAL, TO‘Y KUNI VA TO‘YDAN KEYIN  
O‘TKAZILADIGAN URF-ODATLAR**

**ОБЫЧАИ, ПРОВОДИМЫЕ ПЕРЕД СВАДЬБОЙ, В ДЕНЬ СВАДЬБЫ И ПОСЛЕ  
СВАДЬБЫ У УЗБЕКСКОГО И НЕМЕЦКОГО НАРОДОВ**

**CUSTOMS WHICH ARE CARRIED OUT BEFORE THE WEDDING, ON THE DAY OF  
THE WEDDING AND AFTER THE WEDDING IN UZBEK AND GERMAN PEOPLE**

**Pazilova Zilola Shuxratovna<sup>1</sup>**

<sup>1</sup>Farg‘ona davlat universiteti, nemis va fransuz tillari kafedrasida katta o‘qituvchisi, f.f.f.d. (PhD)

**Annotatsiya**

*Mazkur maqolada o‘zbek va nemis tillarida to‘y marosimlari, shuningdek, to‘ydan avval, to‘y kuni va to‘ydan keyin o‘tkaziladigan kichik marosimlarning o‘ziga xos xususiyatlari, o‘zbek va nemis to‘ylaridagi o‘xshash va farqli jihatlari lingvokulturologik jihatdan atroflicha tahlilga tortiladi.*

**Аннотация**

*В данной статье анализируются свадебные обряды на узбекском и немецком языках, а также особенности малых обрядов, проводимых перед свадьбой, в день свадьбы и после свадьбы, узбекские и немецкие свадьбы, сходные и разные аспекты с лингвокультурной точки зрения. точка зрения.*

**Abstract**

*In this article, wedding ceremonies in Uzbek and German languages and features of small ceremonies held before, on the wedding day and after the wedding, similar and different aspects of Uzbek and German weddings from a linguistic and cultural point of view is analyzed from the point of view. point of view.*

**Kalit so‘zlar:** *nahorgi osh, qiz bazmi, xotinlar oshi, kelin salom, yo‘l to‘sdi, olov aylantirish, oyoq bosdi, oyna ko‘rsatar, Verlobung (unashtiruv), Polterabend (kelin-kuyov ziyofati), Junggesellenabschied (kuyovnakarlar o‘tirishi).*

**Ключевые слова:** *завтрак, девичник, ужин жены, свадебное приветствие, блокпост, разжигание огня, наступление, зеркальное шоу, Verlobung (помолвка), Polterabend (вечеринка жениха и невесты), Junggesellenabschied (мальчишник).*

**Key words:** *dinner, bachelorette party, wife’s dinner, wedding reception, roadblock, bonfire, insulting, window display, Verlobung (engagement), Polterabend (bride and groom party), Junggesellenabschied (seated grooms).*

**KIRISH**

An‘analar xalqning tarixiy shakllanishi va rivojlanishi jarayonida yaratilgan va avlodlardan avlodlarga muqaddas meros sifatida o‘tib kelayotgan bebaho ma‘naviy boylik hisoblanadi.

Ayniqsa turli xalqlarning urf-odatlarini chog‘ishtirma planda tadqiq etish ham ana shu ma‘naviy boylikka nisbatan alohida e‘tibor sanaladi. Biz bir-biridan uzoqda yashovchi nemis va o‘zbek xalqlariga oid urf-odat nomlarini ifodalovchi leksik birliklarni shartli ravishda bir necha turlarga ajratishga harakat qildik. Mazkur leksik birliklar orasida to‘y marosimlari bilan bog‘liq ifodalarning o‘rni alohida ahamiyat kasb etadi.

O‘zbek va nemis tilshunosligida urf-odatlariga bog‘liq to‘y marosimlarida ishlatiluvchi nomlar, nikoh qo‘shiqdari, yangi tug‘ilgan chaqaloqlik paytida o‘tkaziladigan marosimlar sirasiga kiruvchi o‘zbeklarda azon chaqirish, aqiqa va nemislarda Taufen (cho‘qintirish) va ularning muayyan dialektlarda qo‘llanilishi borasida o‘zbek va nemis tillarida bir qator tadqiqotlar olib borilgan. Ushbu tadqiqotlarda o‘zbek va nemis xalqlaridagi to‘y marosimiga tegishli qator so‘z va iboralar obyekt sifatida olingan va ular tahlilga tortilgan.

**ADABIYOTLAR TAHLILI VA TADDIQOT USLUBLARI**

Nemis tilshunos olimi Anke Fisherning “Feste und Bräuche in Deutschland” (Germaniya bayramlari va urf-odatlari) nomli tadqiqotida esa har bir mintaqaning oila, jamoa, do‘stlar davrasida yoki tabiat qo‘ynida nishonlanadigan, pasxa yoki rojdestvo kabi katta bayramlardan tortib, kichik doirada va eng yaqin qarindoshlar bilan bo‘lib o‘tadigan urf-odatlar, barcha marosimlarning yig‘indisi bo‘lgan, masalan, tug‘ilish, nikoh, motam kabilarni urf-odatlariga kiritadi.

Nemis tilshunos olimi Anjelika Faylxauyyerning “Feste feiern in Deutschland” (Germaniyada bayramlarning nishonlanishi) nomli tadqiqoti o‘tmish va hozirgi kun urf-odatlariga sayohat bo‘yicha qo‘llanma bo‘lib, u avvalgi va hozirgi urf-odatlar, eski an‘analar yoki tarixiy voqealar bilan bog‘liq

bo'lgan urf-odatlar va bayramlarning kelib chiqishi, ularning doimiy ravishda o'zgarib turishi va an'analarning xilma-xil ko'rinishlariga bag'ishlanadi.

O'zbekiston etnografiyasi tadqiqotchilaridan A.Doniyorov XIX-XX asr o'zbek etnografiyasi haqida shunday yozadi: "Etnografik ishlarning davlat siyosati manfaatlariga yo'naltirilganligini ham aytmay bo'lmaydi, albatta. Ularning ko'p qismi chor hukumati manfaati yo'lida tayyorlangan edi. Chunki hokimiyat o'lkani o'zlashtirib, bu yerda mustahkam o'rnashishni maqsad qilgan edi."

### OLINGAN NATIJALAR VA ULARNING MUHOKAMASI

Olingan natijalar va ularning muhokamasiga asoslangan holda ko'rish mumkinki, nemis xalqida ham urf-odatlariga ko'ra to'ydan avval, to'y kuni hamda to'ydan keyin o'tkaziladigan udumlar mavjud. To'ydan avvalgi marosim nomlari sifatida "**Verlobung**" (unashtiruv) marosimi, "**Polterabend**" (kelin-kuyov ziyofati) hamda "**Junggesellenabschied**" (kuyovnavkarlar o'tirishi, kuyov oshi) leksik birliklarini keltirishimiz mumkin.

To'yga kimni taklif qilish va kimni taklif qilmaslik haqidagi qaror kelajakdagi kelin va kuyovdan katta sezgirlikni talab qiladi. Bu muammoni juda oddiy hal qiladigan ajoyib an'ana borligi yaxshi narsa, bu – "**Polterabend**" ya'ni, kelin va kuyov ziyofati" dir.

"**Polter**" so'zi aslida "shovqin", "guvillash", "shovqin qilish" degan ma'nolarni anglatadi. Kelin-kuyov ziyofati, odatda, to'ydan bir kun avval an'anaviy ravishda birgalikdagi turmushning boshlanishi sifatida ko'rilganligi sababli, qarindoshlar va do'stlar, qo'shnilar hamda hamkasblar bilan bayramona kayfiyatda nishonlanadi. Bu udum kelinning ota-onasinikida o'tkaziladi. Agar juftlikning o'z uylari bo'lsa, mehmonlar ana shu yerga taklif qilinadi. Bog'dagi chodir, podval (yerto'la)dagi ziyofat xonasi yoki uy ichidagi hovli oilaviy muhitni yaratishning ajoyib usuli sanaladi. Tashrif buyurgan mehmonlar o'zlari bilan keraksiz yoki yaroqsiz bo'lgan chinnilar olib kelishadi va ular yovuz ruhlarni haydab chiqarish maqsadida yerga urib sindiriladi. Singan chinni bo'laklarini bo'lajak kelin va kuyov birgalikda supurib tashlashadi. Bu udum ularning kelajakda ham barcha duch kelingan muammolarni birgalashib bartaraf qilinishini anglatadi. "Einwegkamera" (kamera) va "Gästebuch" (mehmonlar kitobi) kechaga unutilmas o'zgacha ruh baxsh etadi.

"**Junggesellenabschied**" (kuyovnavkarlar o'tirishi, kuyov oshi) to'ydan bir necha hafta ilgari "Trauzeuginnen" nikoh guvohlari barcha do'stlar bilan hamkorlikda tashkillanadi. Bu kechada bo'lajak kuyov an'anaga ko'ra turmush qurmagan, bo'ydoq do'stlari bilan xayrlashadi. Ushbu marosim "Trauzeugen" (nikoh guvohlari) do'stlar bilan hamkorlikda tashkillanadi.

O'zbek xalqida to'y kuni o'tkaziladigan rasm-rusumlar nomlariga **nahorgi osh, qiz bazmi, xotinlar oshi, kelin salom, yo'l to'sdi, olov aylantirish, oyoq bosdi, oyna ko'rsatar** kabi lug'aviy birliklar mansub. Mazkur birliklar ma'nolari doirasidagi dastlabki harakat bilan bog'liq ma'nolar saqlangan bo'lsa-da, ular muayyan urf-odat nomlari sifatida yaxlitlashgan butunlik tarzida amal qiladi.

Nemis xalqida to'y kuni o'tkaziladigan kichik marosimlar nomlari sifatida **Geschenkübergabe von Gästen** "mehmonlar tomonidan sovg'alar va to'yonalarning topshirilishi", **Schreiben von Wünschen auf weißem Tuch** "oq matoga istak va tilaklarning yozilishi", **Dank des Brautpaares** "kelin-kuyov tashakkuri", **Tanz des Ehepaares** "kelin-kuyov raqsi", **Schneiden der Torte vom Brautpaar** "kelin-kuyov tomonidan tortni kesish", **Brautstrauß werfen** "gul irg'itish" kabilarni qayd etish mumkin. Raqs tugagandan so'ng kuyov va kelinning do'stlari oq matoni boshlariga soyabon qilib ushlab turadilar. Mehmonlar o'z xohishlariga qarab matoga pul tashlaydilar. Erkak mehmonlar kelin bilan, ayol mehmonlar esa kuyov bilan bir muddat raqsga tushadilar. Yig'ilgan pul kelin-kuyovning **Flitterwochen** "asal oyi" sayohatlari uchun yoki biror ehtiyojlari uchun sarflanadi. Raqsdan so'ng oq matoni kuyovning jo'ralari o'zaro talashib, matoni olgan jo'ra g'olib hisoblanadi. Bu odat o'zbek to'y marosimidagi kuyov va kuyov jo'ralar oyog'i ostiga solinadigan poyonozga o'xshab ketadi. Kuyov poyonozdan o'tib bo'lgandan so'ng kuyov jo'ralar o'zaro poyonozni talashib tortadilar va g'olib chiqqan kuyov jo'ra poyonozga ega bo'ladi. To'y marosimi davomidagi tort kesish jarayoni to'yga alohida joziba bag'ishlaydi. To'yga kelin-kuyov tomonidan barchaga yetarli darajada tort tayyorlanadi, pichoqni birga ushlagan holatda tortni kesib, avval kelin-kuyov bir-birlariga yediradilar, so'ng mehmonlarni tortga taklif etadilar. To'yda guldasta irg'itish ham alohida ahamiyat kasb etadi. Kelin turmushga chiqmagan dugonalarini davraga chorlaydi va ularga orqa o'g'irgan holda qo'lidagi guldastani otadi. Aytishlaricha, navbatdagi to'y guldastani tutib olgan qizga nasib qilar ekan.

## TILSHUNOSLIK

O'zbek to'ylarida esa nemis to'ylaridan farqli o'laroq, "mehmonlar tomonidan sovg'alar va to'yonlarning topshirilishi" marosimida to'yonalar faqat kelin-kuyovga emas, balki ularning otalariga berilish, kelin-kuyov nutq so'zlamasligi, kelin-kuyov raqsi, kelin-kuyov tomonidan tortni kesish barcha to'ylarda urf emasligi, ba'zi to'y marosimlarida esa gul irg'itish Yevropa to'ylariga taqlid qilingan holda o'tkazilayotganini ko'rishimiz mumkin. Bu ham madaniyatlararo farqlanishni ifodalaydi.

## XULOSA

Har bir xalqda marosim va urf-odatlar umumiy va o'ziga xos milliy, mental xususiyatlarga ega bo'ladi. Bu xalqlar tarixi, madaniyati, yashash tarzi va undagi ijtimoiy o'zgarishlar bilan bog'lanadi. O'zbek va nemis xalqlarida to'y marosimlari bilan bog'liq marosimlar urf-odatlar tarkibida katta o'rin egallashi har ikkala xalq uchun ham xarakterli bo'lsa, ularda marosimlarning o'tkazilish tartibi va mohiyatiga ko'ra muayyan farqlanishlar kuzatilib, bu farqlar ikki xalq madaniyatining o'ziga xosligini ko'rsatadi.

To'y marosimlari bilan bog'liq tushunchalarda *sovchi, fotiha, bo'ldi-bo'ldi, yuzochar, sep, ko'ch, vakilota/vakilona, mahr, sha'riy nikoh, taloq, un-guruch, yuk, kuyov ziyofat, chimildiq, paranji, kelin yanga* kabi tushunchalar nemis xalqi to'y marosimlari uchun lakuna hisoblansa, nemislarning to'y marosimlariga doir *nikoh shartnomasi, asal oyi sayohati, sevgi tarixi, kelin guldastasi* tushunchalari o'zbek xalqi qarashlaridan farq qiladi.

Marosim, urf-odat va ularda o'tkaziladigan jarayonlarda diniy qarashlar katta o'rin tutadi. Tadqiqot uchun tanlangan o'zbek va nemis xalqlari an'analari aynan shu nuqtada keskin farqlanishlarga ega bo'ladi. O'zbek xalqi asosan musulmonlik dini aqidalariga, nemislar esa katolik va xristianlik dinlari udumlariga amal qiladilar.

## ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Helga Maria Wolf. Die schönsten Bräuche, Rituale und Traditionen. – Berlin: Insel Verlag, 2018. – 107 S.
2. Pazilova, Z. (2021). Traditions as an integral part of ethnoculture. THEORETICAL & APPLIED SCIENCE Учредители: Теоретическая и прикладная наука,(9), 689-691.
3. Zilola, P. (2022). Realization of Stable Units. American Journal of Social and Humanitarian Research, 3(10), 117-121.
4. Пазилова, З. Ш. (2022). ЎЗБЕК ВА НЕМИС ХАЛҚЛАРИДА БОЛАЛИК ДАВРИГА ХОС БЎЛГАН УРФ-ОДАТ ИФОДАЛОВЧИ ЛЕКСИК ИФОДАЛАРНИНГ ЎЗИГА ХОС ХУСУСИЯТЛАРИ. OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI, 122.
5. Pazilova, Z. (2023). Paradigm of Customary Names, Characteristics and Uniqueness of the Traditions of the Uzbek and German Peoples. EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION, 3(8), 57-59.
6. Pazilova, Z. (2023). THEORETICAL FOUNDATIONS OF STUDYING TRADITIONAL NAMES IN LINGUISTICS. International Bulletin of Engineering and Technology, 3(8), 58-60.